



XOJA XASAN ANDOQIY YO'LI

Baynazarov Zokir, PhD, dotsent.

Samarqand davlat universiteti

<https://orcid.org/0000-0001-5874-4246>

zmboynazarov81@gmail.com

Annotatsiya. Ona yurtimiz qadim zamonlardan buyuk sarkardalar, olimlar, mutafakkir va shoirlar, diniy ulamolar va tasavvuf peshvolari yetishtirgan ulug' zamin sifatida dunyo tarixida alohida o'rin tutadi. Bu zamin o'z farzandlarining chuqur bilimlari, aql-zakovati, ulkan bunyodkorlik ishlari, qad ko'targan shahar-u imoratlari hamda qudratli davlatlari bilan jahonga mashhur bo'lgan. Ayniqsa, Turk-islom madaniyati rivojida katta rol o'ynagan diniy-tasavvufiy maktablarning shakllanishi ham shu yurtning yetuk siymolari nomi bilan bog'liqdir.

Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyo tasavvuf tarixida muhim o'rin egallagan taniqli mutasavvif Xo'ja Hasan Andoqiyning hayot yo'li, ilmiy faoliyati va falsafiy qarashlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda Andoqiyning VIII–XII asrlarda keng yoyilgan tasavvufiy harakatning faol ishtirokchisi sifatida shakllanish jarayoni batafsil yoritilgan. Shuningdek, uning mintaqadagi taniqli sufiy olimlar Yusuf Hamadoni va Ahmad Yassaviy bilan yaqin munosabatlari hamda Xojagon tariqati rivojida salmoqli o'rni ochib berilgan. Andoqiy ta'limotining insonlarni axloqiy poklikka, ruhiy-ma'naviy kamolotga va Allohga ixlos bilan ibodat qilishga chaqiruvchi jihatlari maxsus ta'kidlangan. Maqolada tarixiy-ilmiy asarlar va boshqa manbalar asosida Andoqiyning tug'ilgan joyi, ta'lim olgan madrasalari hamda diniy-ilmiy ustozlari haqida yangi ma'lumotlar berilgan. Uning o'z davridagi madaniy, ijtimoiy va diniy hayotga ko'rsatgan ta'siri tahlil etilib, zamondosh olimlar bilan o'zaro munosabatlari, safarlari hamda tariqat ichidagi faoliyatlari aniq tarixiy faktlar asosida ko'rsatilgan. Yusuf Hamadoni bilan bo'lgan ustoz-shogird munosabatining uning ruhiy va falsafiy qarashlarini shakllantirishdagi ahamiyati misollar bilan dalillangan.



Tadqiqotda Andoqiy ta'limotining Ahmad Yassaviy bilan bo'lgan yaqin hamkorlik munosabati orqali yanada rivoj topgani hamda uning falsafiy hikmatlarining amaliy ahamiyati qayd etilgan. Uning asosida shakllangan Xojagon tariqatining tamoyillari nafaqat Markaziy Osiyo hududi bilan cheklanmay, balki Old Osiyo va Anado'li (hozirgi Turkiya) mintaqalarida ham keng yoyilgani va chuqur ta'sir ko'rsatgani bayon etilgan. Tadqiqotda Andoqiy merosini chuqur o'rganish bugungi kunda ham dolzarbligi ta'kidlangan bo'lib, bu orqali o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va diniy-ma'naviy qadriyatlarini yanada to'laroq anglash imkoniyatiga ega bo'lishi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: *Xojagon tariqati, Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Xo'ja Hasan Andoqiy, tasavvuf va din, ma'naviy meros, sufiylik maktabi, ijtimoiy-madaniy ta'sir, Samarqand, Qiziltepa, Buxoro.*

Аннотация. *Наша Родина с древних времен занимает особое место в мировой истории как великая земля, взрастившая великих полководцев, ученых, мыслителей и поэтов, религиозных ученых и лидеров суфизма. Эта земля прославилась во всем мире глубокими знаниями своих сыновей, их интеллектом, великими созидательными трудами, возведенными городами и сооружениями, а также могущественными государствами. В частности, формирование религиозно-суфийских школ, сыгравших большую роль в развитии тюрко-исламской культуры, также связано с именами выдающихся личностей этой страны.*

В данном исследовании подробно проанализированы жизненный путь, научная деятельность и философские взгляды известного суфия Ходжи Хасана Андоки, занимавшего важное место в истории суфизма в Центральной Азии. В исследовании детально освещен процесс становления Андоки как активного участника широко распространенного суфийского движения в VIII-XII веках. Также раскрыты его тесные отношения с известными суфийскими учеными региона Юсуфом Хамадани и Ахмадом Яссави, а также его значительная роль в развитии тариката Ходжагон. Особо подчеркиваются аспекты учения Андоки, призывающие людей к нравственной чистоте, духовно-нравственному



совершенству и искреннему поклонению Аллаху. В статье, основанной на историко-научных трудах и других источниках, представлена новая информация о месте рождения Андоки, медресе, где он учился, и его религиозно-научных наставниках. Проанализировано его влияние на культурную, социальную и религиозную жизнь своего времени, показаны его взаимоотношения с современными учеными, его путешествия и деятельность в рамках тариката на основе конкретных исторических фактов. Значение отношений наставник-ученик с Юсуфом Хамадани в формировании его духовных и философских взглядов подтверждено примерами.

В исследовании отмечается, что учение Андоки получило дальнейшее развитие благодаря тесному сотрудничеству с Ахмадом Яссави, а также подчеркивается практическое значение его философской мудрости. Утверждается, что принципы тариката Ходжагон, сформированного на его основе, распространились и оказали глубокое влияние не только на территорию Центральной Азии, но и в регионах Передней Азии и Анатолии (современная Турция). В исследовании подчеркивается актуальность глубокого изучения наследия Андоки и в наши дни, что позволит более полно понять исторические, культурные и религиозно-духовные ценности узбекского народа.

Ключевые слова: тарикат Ходжагон, Юсуф Хамадани, Ахмад Яссави, Ходжа Хасан Андоки, суфизм и религия, духовное наследие, суфийская школа, социально-культурное влияние, Самарканд, Кызылтепа, Бухара.

Abstract. Our Motherland holds a special place in world history as a great land that has produced eminent commanders, scholars, thinkers and poets, religious scholars, and Sufi leaders since ancient times. This land has become world-renowned for the profound knowledge, intellect, and monumental creative works of its children, as well as its cities, edifices, and powerful states. Notably, the formation of religious-Sufi schools, which played a major role in the development of Turkic-Islamic culture, is also associated with the names of distinguished figures from this land.

This study comprehensively analyzes the life path, scholarly activities, and philosophical views of the renowned Sufi Khoja Hasan Andoqi, who occupied an



important place in the history of Central Asian Sufism. The research details Andoqi's development as an active participant in the widespread Sufi movement of the 8th-12th centuries. It also reveals his close relations with the region's famous Sufi scholars Yusuf Hamadani and Ahmad Yassavi, as well as his significant role in the development of the Khojagon tariqa. The aspects of Andoqi's teachings that call people to moral purity, spiritual and ethical perfection, and sincere devotion to God are particularly emphasized. The article provides new information about Andoqi's birthplace, the madrasas where he studied, and his religious-scholarly teachers based on historical-scientific works and other sources. His influence on the cultural, social, and religious life of his time is analyzed, and his interactions with contemporary scholars, travels, and activities within the tariqa are presented based on specific historical facts. The significance of his teacher-student relationship with Yusuf Hamadani in shaping his spiritual and philosophical views is substantiated with examples.

The study notes the further development of Andoqi's teachings through close cooperation with Ahmad Yassavi and the practical significance of his philosophical wisdom. It is stated that the principles of the Khojagon tariqa, formed on this basis, were not limited to Central Asia but also spread widely and had a profound influence in the regions of the Near East and Anatolia (present-day Turkey). The study emphasizes the ongoing relevance of in-depth research into Andoqi's heritage, which allows for a more comprehensive understanding of the historical, cultural, and religious-spiritual values of the Uzbek people.

Keywords: Khojagon tariqa, Yusuf Hamadani, Ahmad Yassavi, Khoja Hasan Andoqi, Sufism and religion, spiritual heritage, Sufi school, socio-cultural influence, Samarkand, Qiziltepa, Bukhara.

Kirish. Tasavvuf VIII-XII asrlar davomida islom dunyosining madaniy va diniy jihatdan shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-ruhiy harakat sifatida yuzaga chiqdi. Bu davr tasavvuf uchun insonning shaxsiy ruhiy-ma'naviy kamolotiga xizmat qilish bilan birga, keng jamoatchilikni axloqiy poklik va ezgulik sari chorlovchi muhim omil sifatida ham tavsiflanadi. O'sha davrning taniqli ulamolari Yusuf Hamadaniy, Xo'ja Abdulloh Barrahiy, Xo'ja Hasan Andoqi, Ahmad Yassaviy,



Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro singari mutasavviflar tomonidan asos solingan tariqatlar Markaziy Osiyoda, shuningdek, Ahmad Yassaviy orqali Hoji Bektoshi Vali hamda uning izdoshlari ta'sirida Old Osiyo, Onado'li va Bolqon yarimoroli hududlarida keng yoyildi. Bu tariqatlar o'z ta'limotlari orqali insonlarni Allohga bo'lgan samimiy muhabbatga, axloqiy yetuklik va ruhiy poklikka da'vat qildilar. Ularning faoliyati jamiyatda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, shuningdek, madaniy muhitni boyitishda muhim o'rin tutdi.

Ahmad Yassaviy tasavvufiy she'riyat orqali islom dinining insonlar oldidagi vazifalari hamda Allohga bo'lgan muhabbatni chuqur ifodalagan bo'lib, uning hikmatlari ko'plab mutasavviflarning ta'limotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Xo'ja Hasan Andoqiy singari yetuk olimlar ham uning ta'limotidan ilhomlangan holda o'z faoliyatlarini olib bordilar va uning hikmatlarini o'z amaliy va nazariy ta'limotlariga singdirdilar. Xo'ja Hasan Andoqiy o'z davrining mashhur mutasavvifi sifatida nafaqat nazariy tasavvufni rivojlantirdi, balki uning amaliy jihatlarini ham keng yoyilishiga katta hissa qo'shdi.

Ushbu maqolada Xo'ja Hasan Andoqiyni hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati, u ta'lim olgan muhit hamda zamondoshlari bilan bo'lgan aloqalari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, uning tasavvuf ta'limoti rivojiga qo'shgan hissasi, uning nazariy va amaliy jihatlarining o'z davridagi va keyingi asrlardagi ahamiyati tarixiy manbalar asosida chuqur tahlil qilinadi.

Metodlar. Tadqiqot Yusuf Hamadoni asarlari, Andoqiyni tarjimai holi va zamonaviy tadqiqotlar kabi tarixiy matnlar va qo'lyozmalarni sifatli tahlil qilishga asoslangan. Ma'lumotlar yuklangan manbalar, jumladan, "Xojagon tariqati va Xo'ja Hasan Andoqiy", Abdulkarim Sam'oniyni "Nasabnoma" (al-Nasab, Ansob), Ali Safiyni "Rashahot ayn ul-hayot" (Obihayot tomchilari) hamda boshqa tegishli hujjatlardan olindi. Ushbu ma'lumotlar Andoqiyni hayoti va intellektual-faoliyati haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun tahlil qilindi.

Tadqiqot.

1. Hayot yo'li. Xo'ja Hasan Andoqiy (Abu Muhammad Hasan ibn Husayn Andoqiy hijriy 460-552, milodiy 1067-1159-yy.) 1067-yilda Buxoroda tug'ilgan. Bu



haqida Ali Safiyning “Rashahot ayn ul-hayot¹” (Obihayot tomchilari. 909/1503-yil) asarida quyidagicha ma’lumot beriladi: *Abu Muhammad Hasan ibn Husayn Andoqiy 464/1071-yilda Buxoroning Andoq qishlog‘ida tug‘iladi.... “Va Sam’oniyy “Ansob”da kelturubdikim, Marvda bir deha turur, shaharning ikki farsaxlik yeridakim, ani ham Andoq derlar va Andoq muarrabi Andok turur, lekin Andoqiy Marvda emas, balki Buxoroning Andoq qishlog‘ida tavallud topgan*”. Ali Safiyning bu kitobi buyuk mutasavvuf Xo‘ja Ahrori Valiy tavsiyasi bilan yozilgan bo‘lib, tarixchi akademik Bo‘riboy Ahmedovning ta’kidlashishicha, XV-XVI asrlar ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini yoritishda tadqiqotchilar shu manbaga murojaat qiladi. Manbaning juda ko‘plab qo‘lyozmalari va hatto, Xorazmda eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan variant ham O‘zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlandi. “Rashahot”da ta’kidlanishicha, aslida Andok, arab muarrixlari Andoq shaklida yozgan bo‘lib, Buxorodan 3 farsax masofada joshlashgan va hozirgacha shu nom bilan saqlanib qolgan qishloq sanaladi. “Andak” so‘zi o‘zbek tilining izohli va etimologik lug‘atlarida qayd etilgan bo‘lib, *bir oz, picha, kamgina, qittak* degan ma’nolarni anglatadi². Andoqiy allomaning nisbasi (*tug‘ilgan joyiga ishora*) bo‘lib, qishloq nomidan olingan. Bu toponim esa geografik joylashuvdan kelib chiqqan bo‘lishi kerak. Xo‘ja Hasan mashhur faqih Abulkarim ibn Hanifa Andoqiyning nabirasi edi. Andoqiy 1158-yilda Ramazon oyining oxirlarida vafot etgan va Samarqandning Andoqsoy qishlog‘ida dafn etilgan. Vaqt o‘tishi bilan uning qabri ziyoratgohga aylangan. Mahalliy aholi tomonidan maqbaraning tiklanishi uning merosiga bo‘lgan hurmatni ko‘rsatadi³. “Rashahot”da esa hijriy 552 (milodiy: 1057) -yil, ramazon oyining 27-kuni vafot etgan Xasan Andoqiyning qabri muboraklari Buxoroning tashqarisidagi Shayx Abubakr Kalobodiyning maqbarasida, Shayx qabrining kunchiqar tomonida joylashgan⁴ degan ma’lumot keltiriladi. Bu hozirgi Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Toshrobot mahallasi Xo‘ja Hasan qishlog‘idagi qabriston sanaladi⁵. “Taskirayi

¹ Faxriddin Ali Safiy. Rashahat. -Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 2003, -B.13-14. Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xo‘ja Hasan Andoqiy. Samarqand, 2021.

² <https://izoh.uz/word/andak> (2024, dekabr).

³ Ibodov B. Abulhasan Andoqiyning hayot yo‘li. <https://www.bukhari.uz/?p=18028&lang=oz>.

⁴ Faxriddin Ali Safiy. Rashahat. -Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 2003, -B.14

⁵ Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xo‘ja Hasan Andoqiy. Samarqand, 2021. -B.46.



Naqshbandiya” asarini muallifi Tohir Eshon Xorazmiyning ta’kidlashicha, *Xoja Hasan Andoqiy Barrahiy qabrining orqa tarafidadur. Hamona ikki qabr bir yerda muttasil (bir-biriga yopishgan)dekdur. Ba ikki birodari hampir bir joyda matfundurlar*⁶. Bu ma’lumot boshqa manba asosida ham dalillangan. “Qiziltepa qamiyatidan lavhalar” nomli tadqiqotda hozirgi Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Toshrovot xo’jaligi Xoja Hasan mahallasida Andoq qishlog’i va shu yerda joylashgan qadimiy “Xoja Hasan Andoqiy” qabristoni bor⁷. Bu yerda ho’jagon tariqati pirlari bilan birgan alloma nomi bilan ataladigan qabr ham mavjud bo’lib, keltirilgan manbalardagi ma’lumotlar asosli ekanligini tasdiqlaydi. Mavzuga u qadar aloqasi bo’lmasa-da, ta’kidlash joizki, Kattaqo’rg’on tumanidagi Andoqsoy toponimi ham tasodif emas. Bunga “ko’chib yuruvchi nomlar” sifatida qarashimiz kerak. Ya’ni, bir nuqtadagi aholi boshqa nuqtaga ko’chganda o’z nomini “tashigan”. Tarixda bunday hollar ko’p uchragani toponimik manbalarda ko’p qayd etilgani, sir emas.

2. Ta’lim olishi. Andoqiy dastlabki ta’limni Buxoroning taniqli ulamolaridan biri bo’lgan Abu Muhammad Abdulaziz Halvoiyy (shams ul-Aimma) qo’l ostida fiqh va hadis ilmlari bo’yicha olgan. Abdulkarim Sam’oniyyning VIII-XII asrlarda yashagan o’zbekistonlik olimlar hayoti haqida ma’lumot beruvchi “Nasabnoma” (al-Nasab) kitobida quyidagilar qayd etilgan: Abul Muzaffar Abdulkarim ibn Abu Hanifa al-Andaqiy imom, fozil, zohid, taqvodor zot bo’lganlar, kamtarinliklari va chiroyli siyratliklari bilan nom chiqarganlar. “Shams ul-aimma” (imomlar quyoshi) Abu Muhammad Abdulaziz al-Halvoiyydan fiqh va hadis ilmlaridan ta’lim olganlar. Hijriy 400 (milodiy 1010) yilda tug’ilib, hijriy 481 (milodiy 1089) yilning sha’bon oyida vafot etganlar. Nevaralari Abu Muhammad Hasan ibn Husayn al-Andaqiy o’z davrlarining tariqat, tasavvuf ilmi mashoyixlaridan edilar. Bu kishi umrlarini muridlar tarbiyalash bilan o’tkazdilar⁸. “Imomlar quyoshi” (“shams ul-Aimma”) – Abul Muzaffar Abdulkarim ibn Abu Hanifa al-Andaqiy Xoja Hasan Andoqiyyning bobosi bo’lib, ilmi, zohid, kamtarin xulqi va go’zal siyrati bilan nom chiqargan zotlardan biri

⁶ Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xo’ja Hasan Andoqiy. Samarqand, 2021. -B.26.

⁷ Mirzaaxmedov J, Odilov Sh. Qiziltepa qadimiyatidan lavhalar. “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nasriyoti”, 2002. -B 44. 86b.

⁸ Abdulkarim as-Sam’oniyy. Nasabnoma (al-Ansob). Toshkent, 2017. -B.10-11.



edi. Dastlabki ta'limni oilasida olgan alloma qishlog'idan 3 farsax yo'l bo'lgan Buxoroda madrasada o'qishni davom ettiradi. Andoqiy madrasa o'qib yurgan vaqtlarda islom falsafasining yetuk vakili, Ho'jagon tariqatining asoschisi, ulug' ma'naviy pir Yusuf Hamodoniylar Buxoroga keladi. Taqdirning bu ulug' inoyati ila Hamodoniylar bilan tanishadi va uning qo'lida tahsil ola boshlaydi.

3. Diniy-falsafiy ta'siri. Alloma o'z davrining tariqat, tasavvuf ilmi mashoyixlaridan edi. Butun umrini ilm olish va muridlariga ta'lim-tarbiya berish bilan o'tkazgan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning sunnatlariga qat'iy rioya etardi. Insonlarni Allohga ibodat qilishga, riyozatni lozim tutishga da'vat etardi. Andoqiyni ta'limi va diniy-ma'naviy yo'li uning ustozlari Yusuf Hamodoniylar bilan chambarchas bog'liq edi. Yusuf Hamodoniylar shogirdlarining eng yuksak darajasidagi vakili sifatida tan olingan Andoqiy uning ikkinchi xalifasi bo'lib, tariqat rahbariyatida muhim mavqega ega edi. U Hamodoniylar bilan birga Xorazm, Bag'dod kabi mintaqalarga sayohat qilib, tasavvufiy g'oyalarni yoyishda faol ishtirok etgan. Xasan Andoqiy Xojagon tariqatining tamoyillarini shakllantirish va yoyishda katta hissa qo'shgan. Uning ta'limotlari Sunnatga qat'iy rioya qilish, ma'naviy intizom va axloqiy poklikni targ'ib qilgan. Ozgina mashaqqat chekib tariqat yo'lida martabasi ortib boradi. Butunlay shu ish bilan band bo'lib, o'z oilasini ham unutib qo'yadi. Bundan xabar topgan piri Hamodoniylar "Sen darveshsan, lekin oilang ham bor. Riyazotga haddan ziyod berilib, o'z oilangni unutib, ularni nochor ahvolga solib qo'yish, bu aqlli odamning ishi emas. Bu ishing aqlga ham shariatga ham to'g'ri kelmaydi", - deb ogohlantiradi. Bu haqida "Rashohat"da yozilishicha: Andoqiy ustoziga javoban "Mening holim riyozat vat oat-ibodatga yetadi, boshqasiga yetmaydi" – deydi. Berilgan javobdan jahli chiqqan ustoz Andoqiyni urishib beradi. Oqshom tushiga Haq taola kirib "Ey Yusuf senga aql berdim va Hasanga buyuk aql va ko'ngil berdim" deydi. Bundan xulosa chiqargan alloma Andoqiyni nihoyatda aziz tutdi va uning dunyoviy ishlariga aralashmaydi, u butun umrini tariqat yo'liga, ilm o'rganish va uni targ'ib qilishga bag'ishlaydi. Buni Xoja Hasan Andoqiy bilan birga sayohatlar chiqqani, vaziyatidan ham bilish mumkin. Yuqorida ta'kidlab kelayotgan manbada qayd etilishicha, Xo'ja Yusuf Andoqiy bilan birga Xorazm, Bog'don shaharlarida



safarlarda bo‘lib, ilmu irfon yo‘lini targ‘ib qilgan va vasiyatida “Meni Xo‘ja Abdulloh Barroqiy yuvsin, Xoja Hasan Andoqiy ko‘msin”- deya, Andoqiyga buyuk lutf qo‘rsatgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, Hamadoniylar Andoqiyni juda e‘zozlagan.

4. Ijtimoiy va madaniy ta’siri. Abdulkarim Sam’oniyning “Nasabnoma” (al-Nasab) kitobida qayd etilishicha Andoqiy: *Muhammad alayhissalomning sunnati-saniyalariga, odoblariga olimu omil edilar. Insonlarni Allohga ibodat qilishga, ibodat va riyozatni lozim tutishga da’vat etardilar. Yusuf ibn Ayyub al-Hamadoniyning xos va sevimli muridlaridan bo‘lib, u zot bilan Xorazm, so‘ngra Bag‘dodga birga borganlar. Birinchi marta u kishini Marvda «Shayx» xonaqohida, keyinchalik Buxoroda ko‘rdim va u zotdan ko‘p rivoyat yozib oldim. Hasan al-Andaqiy meni nihoyatda hurmatlardilar. Men u kishidan shayx Yusuf al-Hamadoniylar rivoyat qilgan hadislardan ta’lim oldim. Hijriy 460 (milodiy 1069) yilda tug‘ilib, hijriy 552 (milodiy 1158) yil ramazon oyining 27-tunida (Laylatul-qadr kechasi)da vafot etganlar⁹. Xo‘ja Xasan Andoqiyning ta’siri faqat tasavvufiy-ruhiy soha va yo‘nalish bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy va madaniy hayotga ham chuqur singib ketgan. U jamiyatda axloqiy me’yorlarni mustahkamlash, ilmga hurmatni oshirish va jamoatchilik faoliyatini rag‘batlantirishga katta ahamiyat qaratgan. Ahmad Yassaviy va Abdulloh Barraqiy (Barqiy, Bekriy), Abduxoliq G‘ijduvoniylar kabi zamondoshlari bilan aloqalari islomiy merosning boyishi va kengayishiga xizmat qilgan. Andoqiy Abduxoliq G‘ijduvoniylar kabi o‘nlab izdoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyat qaratgan. Yusuf Hamadoniylar diniy-falsafiy maktabi va uning 4 halifasi (o‘rinbosari) haqida ko‘plab manbalar ma’lumotlar berilgan. Jumladan, mutasavvuf shoir, Alisher Navoiy o‘zing tasavvuf ahli, shayx-mashoixlar haqidagi turkiy tilda yozilgan “Nasoyim ul-muhabbat” asarining Ahmad Yassaviyga bag‘ishlangan bo‘limida quyidagi kichik qaydni keltiradi: *Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu ashobi g‘oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniylar q. s. ning ashobidindur. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniylar bila q. s. suhbat tutubdur va Xoja Abdulloh Barraqiy va Xoja Hasan Andoqiy q. r. bilaki, ham Imom Yusuf Hamadoniylar r. t.**

⁹ Abdulkarim as-Sam’oniylar. Nasabnoma (al-Ansob). Toshkent, 2017. -B.11.



muridlaridurlar, Imom qaysi biyik marotibg'a yetibdurlar, musohib bo'lubdur va ro'zgor mashoyixidin ko'p buzurgvorlar aning tarbiyatini topibdurlar¹⁰. Ularning muvaffaqiyatlari Andoqiyni ilmiy va ruhiy ta'sirining dalilidir. Ahmad Yassaviy bilan bo'lgan munosabatlari esa tasavvufiy hikmatlarni chuqur tushunishda ulkan ta'sir ko'rsatgan. Andoqiyni tariqatda hayotiy amaliyotga urg'u berishi, jamiyatda Allohga xizmat qilishga chaqirish, oddiylik va riyozatni targ'ib qilgan. Tohir Eshon Xorazmiy ma'lumotlariga u yashagan XVIII asrda ham Abulhasan Andoqiy va boshqa ho'jagon pirlarining ma'naviy ta'siri katta bo'lganligi, uning qabr doimo ziyorat etishilishi haqida yozadi. Muallifning ta'kidlashicha, o'zi ham 15 yil farqi bilan ikki marta ziyorat etgan. Andoqiyni sifatleri haqida yozarkan Tohir Eshon o'zining "Tazkirayi Naqshbandiya" asarida bir bayt keltiradi: *Boz az Yusufam ba Andoqiy//Nisbat o'lad zi soqiya boqiy*. Forscha keltirilgan ushbu misralarda *Boqiy sifatli Yusufdan, Andoqiya avliyolik nisbati keldi*, deb ta'kidlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, Abulhasan Andoqiy ustoz kabi valiy alloma edi¹¹. Hasan Andoqiy haqida qisqa ma'lumot berilgan boshqa bir manba – Mavlaviy G'ulom Sarvar al-Lohiriyning "Xazinat al-Asfiyo" (Musaffo kishilar xazinasi) tazkirasida 2 bayt she'r keltirilgan bo'lib, unda allomaning vafot tarixi abjad hisobida berilgan. *Chun Xasani muhsin valiy ahli Hasan//Az jahon varzid dar jannat vatan. Sali vaslash "fathi din" oman ayon//Ham raqam shud "orifu obid" Xasan*. Mazmuni: *Yaxshi insonlardan bo'lgan yaxshilik qiluvchi Xasan, jahondan ketib jannatdan joy oldi. Vafotining yili "fathi din" bo'ldi. Yana "orifu obit" ham vafot yilidir*. Abjad bo'yicha "fathi din" va "orifu obid" shaklidan Andoqiyni vafot tarixi, 552 (1157)- yil kelib chiqadi. Lohuriyning bu sari 1864-yilda yozilgan bo'lib, 1902-yilda nashr qilingan. Andoqiy va uning safdoshlarining ilmu-irfon yo'lida amalga oshirgan ishlari XIX asrda ham yuksak darajada e'zozlangani, uning ta'sir hududlari, xatto, Hind diyorida ham sezilishini ko'rsatadi. Shuningdek, "Tuhfat uz-zoirin" asarining muallifi Nosiriddin Buxoriy Andoqiyni ulug' olim, orif, karomat va maqomat sohibi deb ta'riflaydi. 1906-yilda yozil tugallangan ushbu asar ulug' avliyo va anbiyolarning qabri ziyorati, ularning

¹⁰ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. -N.39.

¹¹ Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xo'ja Hasan Andoqiy. Samarqand, 2021. -B.25.



joylashuv yerlari va ziyorat odoblari haqida bo'lib, boshqa kitoblar kabi alloma safdoshlari bilan birga eslanadi. Ko'rib chiqilgan manbalarda Andoqiy va uning siyrati va surati haqidagi ma'lumotlar ho'jagon tariqati safdoshlari bilan birga berilgan. Uning maqomati naqshbandiya va uning davomchilari bo'lgan yassaviya, kubroviya, bektoshiya, qodiriya kabi irfoniyo'g'ri yo'lga boshlash, kelajak avlodning diniy-ma'rifiy yo'lda tarbiyalash, inson va uning qadr-qimmatini ulug'lashga qaratilgan. Bu jihatlarda Turk-Islom adabiyotiga, jumladan, Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan uyg'unlashgan bo'lib, ma'naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Uning tariqat tamoyillari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Abulhasan Andoqiy va Ahmad Yassaviy ta'limotlarining uyg'unligi zamonaviy tasavvufda davom etmoqda.

Muhokama. Andoqiyning hayoti ruhiy fidoyilik va ilmiy izlanishlarning uyg'unlashgan namunasi edi. Uning Yusuf Hamadoniy va Ahmad Yassaviy kabi zamondoshlari bilan yaqin aloqalari sufiylik maktabining shakllanishi va jamiyatni o'zgartirishdagi rolini ko'rsatadi. U shogirdlariga ta'lim berish orqali nafaqat tariqat yo'nalishlarini mustahkamladi, balki bu harakatlarning kelgusi avlodlarga yetib borishini ta'minladi. Andoqiy rahbarligida Xojagon tariqati dunyoviy va ruhiy yuksalishning muhim harakatiga aylangan.

Ahmad Yassaviy bilan Andoqiyning aloqalari esa sufiylik fikrlarining boyishiga xizmat qildi. Bu ikki ulug' shaxsning hamkorligi ruhiy va axloqiy masalalarda keng jamoatchilikni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xo'ja Hasan Andoqiy va uning qarashlari Onadoli (hozirgi Turkiya)ga ham chuqur ta'sir ko'rsatgan. Ahmad Yassaviy tariqati orqali Hoji Bektoshi Valiy kabi shaxslar tasavvufni keng yoyish va jamiyatni ma'naviy jihatdan boyitishda faol ishtirok etgan. Andoqiyning Xojagon tariqati tamoyillari Onadolida sufiylik qadriyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin egallagan. Ayniqsa, Andoqiyning ta'limoti va Yassaviy g'oyalari uyg'unlashib, Bektoshiya tariqatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ushbu jarayonlar orqali Andoqiyning diniy va madaniy merosi butun islom olamida chuqur iz qoldirgan.



Andoqiy nafaqat ma'naviy sohada, balki ilmiy sohada ham chuqur ta'sir ko'rsatgan. Uning ta'limotlari va fikrlari nafaqat o'z davrida, balki hozirgi kunlarda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Tasavvufning jamiyatda ruhiy va axloqiy uyg'unlikni yaratishga qo'shgan hissasi, Andoqiy singari shaxslar orqali o'zining mukammal ifodasini topgan. Andoqiyning merosi uning zamonaviy tasavvufiy hamda ilmiy izlanishlar uchun ma'naviy yo'lchi sifatidagi o'rni va ahamiyatini namoyon etadi.

Xulosa.

Xo'ja Hasan Andoqiyning tasavvuf va islomiy ilm-fan sohasidagi hissasi o'rta asrlar islom dunyosida ruhiy va intellektual sa'y-harakatlarning o'zaro bog'liqligini namoyish etadi. Uning hayoti va ishlari Yusuf Hamadoniy ta'limotlariga asoslangan holda shakllanib, uning izdoshlari orqali davom ettirilgan. Ahmad Yassaviy bilan bo'lgan aloqalari esa tasavvufning turli jihatlarini boyitishga imkon bergan.

Uning maqbarasining tiklanishi va merosiga bo'lgan hurmat Andoqiyning doimiy ahamiyatini ko'rsatadi. Bu shaxsni o'rganish orqali nafaqat tarixiy islomiy madaniyatni, balki zamonaviy tasavvufga oid muhim bilimlarni boyitish mumkin. Shuning uchun Andoqiyning hayoti, ijodi va ta'limotlari haqida chuqurroq o'rganish, uning merosini zamonaviy avlodlar uchun yanada qadrlash va to'g'ri talqin qilish imkonini beradi. Uning hayoti va zamondoshlari bilan munosabatlari bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'sha davrning tarixiy va madaniy dinamikasini chuqurroq anglashga imkon beradi. Shu tariqa Andoqiy merosining qiymati nafaqat tarixiy, balki ma'naviy jihatdan ham ulkan ahamiyat kasb etadi.

Ihtiboslar/Snoska

Abdulkarim as-Sam'oni. Nasabnoma (al-Ansob). Toshkent, 2017.

1. A. Navoiy Mukammal asarlar to'plami 20 tomlik. 17-tom. "Nasoyim ul-muhabbat", "FAN" nashriyoti. T, 2001
2. Faxriddin Ali Safiy. Rashahat. -Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 2003.
3. Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xo'ja Hasan Andoqiy. Samarqand, 2021. -B.46.
4. <https://izoh.uz/word/andak> (2024, dekabr).



5. Ibodov B. Abulhasan Andoqiyning hayot yo'li. <https://www.bukhari.uz/?p=18028&lang=oz>.
6. Mirzaaxmedov J, Odilov Sh. Qiziltepa qadimiyatidan lavhalar. "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nasriyoti", 2002. -86 b.